

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 710-son qarori yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida

Assalomu alaykum hurmatli davra suhbatlari ishtirokchilari!

Eng avvalida aniqlab olamiz, aholini ro‘yxatga olish o‘zi nima va nima uchun o‘tkaziladi?

Aholini ro‘yxatga olish-bu mamlakat aholisini muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqiyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi.

Mazkur keng miqyosli amaliyotning bosh maqsadlaridan biri mamlakatimizda, umuman har bir ma‘muriy-hududda yashovchi shaxslarning turli tavsiflari to‘g‘risida ishonchli, xolis va yaxlit ma‘lumotlarni yagona statistik uslublar asosida yig‘ishdan iborat.

Har qanday davlatning tarixi – bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o‘z ifodasini topadi. Aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma‘lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi.

Aholini ro‘yxatga olish tadbiri iqtisodiy jihatdan bizga nima beradi?

Birinchi, aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste‘mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) hisoblashda foydalaniladi.

Ikkinchi, respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi, aholi punktlarining infratuzulmasini yaxshilashda, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqishda ishlatiladi.

Bunday ma‘lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni oldindan baholash, bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat va aholi salomatligi bo‘yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishi, ilm-fan va jamiyatni axborot bilan ta‘minlash uchun zarurdir.

SHunday qilib, hukumat oldiga yana bir muhim vazifalar qo‘yildi. Ularni muvaffaqiyatli va to‘laqonli bajarish bilan O‘zbekistonning har bir viloyati, shahari, tumanidan tortib mahallasi-yu ko‘chasiga, chekka qishloq va olis ovullarigacha aloqador bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni o‘zida aks ettirgan yagona axborot bazasi yaratiladi. Bu qimmatli ma‘lumotlar esa bizga bugun, ertaga va yaqin kelajakda juda asqotadi. Zotan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilayotgan ko‘p yillik dasturlar, amalga oshirilayotgan tizimli o‘zgarishlar va belgilab olinayotgan rejalar manzil aniq bo‘lsagina yuqori samara berishiga shak-shubha yo‘q.

Bundan tashqari, bunday o‘zgarishlarning dinamikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kelgusi yillarda mamlakat aholisining soni va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan o‘ziga xos tomonlarini inobatga olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ro‘yxatga olish nafaqat statistik natijalar, balki iqtisodiy va ijtimoiy prognozlash vositasidir. Ro‘yxatga olish bu O‘zbekistonning solnoma tarixidir. Ro‘yxatga olish natijalari esa nafaqat bizga, balki bizdan keyingi avlodlarga ham taalluqli.

Endi bu borada nima ishlar qilinganligi to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 710-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholini ro‘yxatga olish jarayonlariga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq Samarqand viloyatining barcha tumanlarida tashkil etilgan Ro‘yxatga olish bo‘limlari uchun Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 22-iyundagi 46-sonli buyrug‘iga asosan 2022-yil 1-iyuldan barcha tuman shaharlarda Ro‘yxatga olish bo‘limi boshlig‘i va o‘rinbosarlari fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma asosida ishga qabul qilindi.

Ro‘yxatga olish bo‘limi xodimlari bo‘limga yuklatilgan vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishdi;

-2022 yilning iyul oyi davomida hududlaridagi mahalla, korxonalar, tashkilot, muassasa va aholi gavjum joylarda “Aholini ro‘yxatga olish”ning maqsad va vazifalarini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishdi;

“O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 710-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholini ro‘yxatga olish jarayonlariga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq hamda Davlat statistika qo‘mitasining 2022 yil 18-iyuldagi 53-sonli buyrug‘iga asosan tumanlar kesimida 686 nafar registrator xodimlar fuqarolik-huquqiy tUSDagi namunaviy shartnoma asosida ishga qabul qilindi.

-YAngi ishga qabul qilingan 686 nafar registratorlar viloyat statistika boshqarmasi “Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish” bo‘limi xodimlari tomonidan o‘qitildi hamda tanlanma ravishda mahallalarga chiqqan holda amaliyotdan o‘tkazildi;

- registratorlar kadastr organlari tomonidan taqdim qilingan mahallalarning A0 formatdagi xaritalar bilan ta‘minlandi.

- registratorlar tomonidan o‘zlariga biriktirilgan hududdagi barcha uy-joylar va aholi yashaydigan noturar joylar ro‘yxatini to‘liq tuzilishi, aholi soniga aniqlik kiritilishi hamda xaritalarni o‘rganilishi bo‘yicha kunlik nazorat o‘rnatilib boshqarmaga axborot berib borildi.

Registratorlarga viloyat bo‘yicha 664 127 ta xonadonni uyma-uy yurgan holda haqiqiy holatga mosligini o‘rganish topshirilgan edi. O‘rganishlar natijasida viloyat bo‘yicha 702 644 ta xonadan o‘rganilganligi aniqlandi.

Registratorlar tomonidan o‘rganilib, maxsus belgilar kiritilgan xaritalar qabul qilib olinib hududiy kadastr organlariga taqdim etildi.

Registratorlar tomonidan ish jarayonida to‘ldirilgan jadvallar Davlat statistika qo‘mitasi (Agentligi) <https://registrator.stat.uz/> saytining elektron bazasiga to‘liq kiritib borildi.

Registratorlar tomonidan ish jarayonlari yakunlangandan so‘ng ularga “Aholini ro‘yxatga olish jarayonlariga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tartibda ish haqi to‘liq to‘lab berildi.

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra mutassadi tashkilotlar hamkorligida mahalla, qishloq va ovullarning sxematik xaritalari texnik shartlarga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan holda to‘liq yangilanib ikki nusxada chop etilib Samarqand viloyat statistika boshqarmasiga taqdim etildi.